SUD-HUQUQ TIZIMINI YANADA DEMOKRATLASHTIRISH: JORIY HOLATI, MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR.....	884
Majidov Muslimbek Maxamadjon o'g'li	



IQTISODIYOTNI LIBERALLASHTIRISH SHAROITIDA QISHLOQ XO'JALIGIDA KLASSTERLARNI TASHKIL ETISHNING TASHKILIY-HUQUQIY ASOSLARI.....	889
Xo'jageldiyev Chorshanbi Pardayevich	
O'ZBEKISTONDA YASHIL TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH.....	893
Shaymanova Nigora Yusupovna	
XO'JALIK FAOLIYATINI SAMARADORLIGI VA BIZNES HOLATINI BAHOLASH	899
Abdukarimova Muslima Abduaziz qizi, Yuldashev Abduhakim Abdukarimovich	
CROSS-BORDER E-COMMERCE IN CENTRAL ASIA.....	904
Bakhtiyorjon Komilov	
O'ZBEKISTONDA NORASMIY SEKTOR ISHCHILARINING PENSIYA TA'MINOTI MASALALARI.....	908
Abdulazizova Nargiza Baxodir qizi	
KORXONA VA TASHKILOTLARDA QOG'OZ SARFINI OPTIMALLASHTIRISHDA JAHON TAJRIBASI	913
Oripov Mirzo Mahmudovich	
ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ТЕХНОЛОГИЙ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ЗАЩИТЕ ВНУТРЕННЕГО РЫНКА ОТ КОНТРАФАКТНОЙ ПРОДУКЦИИ (НА ПРИМЕРЕ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН).....	917
Ибраимова Махсура Уснатдин кизи	
KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA BOSHQARUV TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	922
Xasanova Robiyaxon Kamoliddin qizi	
THE IMPACT OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE TECHNOLOGIES ON THE PROCESSES OF DIGITAL TRANSFORMATION IN THE INSURANCE INDUSTRY.....	927
D.D.Omonova	
THE ROLE OF INTERNATIONAL FINANCIAL INSTITUTIONS IN THE GLOBAL ECONOMY AND THEIR STAGES OF DEVELOPMENT	933
Yovkochev Sherzod	
YURIDIK SHAXSLARNI YIRIK SOLIQ TO'LOVCHILAR TOIFASIGA KIRITISH MEZONLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	941
To'raqulov Bekzod Hazratqul o'g'li	
BUTUNJAHON SAVDO TASHKILOTIGA A'ZO BO'LIHDA SOLIQ TIZIMINI TRANSFORMATSIYA QILISHNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI.....	945
Xojakbar Zaynabidinov	
BANK TIZIMIDA TAVAKKALCHILIK TUSHUNCHASI VA UNI BAHOLASHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI	950
Malikova Dilrabo Muminovna, Shakarova Kumush Faxriddin qizi	
REAL SEKTOR TARMOQLARINI KREDITLASHDA MOLIVAVIY BARQARORLIKNI TA'MINLASH YO'LLARI.....	955
Savurbayev Zafar Abdumuminovich	
INVESTITSIYA JOZIBADORLIGINI OSHIRISHDA IQTISODIY BARQARORLIK OMILLARI VA ULARNING BOSHQARUVI	960
D. G. Bazarov	
YANGI O'ZBEKISTONDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK SOHASINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH HAMDA KOMPLEKS TIZIMLASHTIRISH	966
Abdullayev Javohir Abdumalik o'g'li	



YANGI O'ZBEKISTONDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK SOHASINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH HAMDA KOMPLEKS TIZIMLASHTIRISH

Abdullayev Javohir Abdumalik o'g'li

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent,

Ta'limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi bo'lim boshlig'i

Annotatsiya. Mazkur maqolada Yangi O'zbekistonni barpo etish sharoitida davlat-xususiy sheriklik (DXSH) sohasini yanada takomillashtirish va uni kompleks tizimlashtirishning nazariy-uslubiy asoslari hamda amaliy yo'nalishlari tahlil qilingan. Mamlakatda iqtisodiy islohotlar jarayonida DXSH mexanizmlarining samaradorligini oshirish, infratuzilma, ijtimoiy soha, ta'lim va sog'liqni saqlash kabi ustuvor yo'nalishlarda xususiy sektor ishtirokini kengaytirishning institutsional asoslari yoritilgan. Shu bilan birga, DXSHni tizimli rivojlantirish, loyihalarni baholash, xavflarni taqsimlash, huquqiy muhitni mustahkamlash va xalqaro tajribalarni milliy amaliyotga uyg'unlashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: davlat-xususiy sheriklik, institutsional islohotlar, infratuzilma loyihalari, tizimlashtirish, xavflarni boshqarish, investitsiya muhiti, samaradorlik.

Abstract. This article examines the theoretical-methodological foundations and practical directions for further improving and systematizing the field of public-private partnership (PPP) in New Uzbekistan. The study analyzes ongoing institutional reforms aimed at enhancing the efficiency of PPP mechanisms and expanding private sector involvement in priority areas such as infrastructure, social services, education, and healthcare. The article also provides policy recommendations for developing a comprehensive PPP system, including project evaluation, risk allocation, strengthening the regulatory framework, and integrating best international practices into national implementation.

Key words: Public-private partnership, institutional reforms, infrastructure projects, systematization, risk management, investment climate, efficiency.

Аннотация. В данной статье исследуются теоретико-методологические основы и практические направления дальнейшего совершенствования и комплексной систематизации сферы государственно-частного партнёрства (ГЧП) в условиях Нового Узбекистана. Анализируются институциональные реформы, направленные на повышение эффективности механизмов ГЧП, расширение участия частного сектора в инфраструктурных, социальных, образовательных и медицинских проектах. Кроме того, предлагаются рекомендации по системному развитию ГЧП, совершенствованию оценки проектов, управлению рисками, укреплению нормативно-правовой базы и гармоничному внедрению передового международного опыта в национальную практику.

Ключевые слова: Государственно-частное партнёрство, институциональные реформы, инфраструктура, систематизация, управление рисками, инвестиционный климат, эффективность.

KIRISH

Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish, xususiy sektorning iqtisodiyotdagi ulushini ko'paytirish va aholi farovonligini ta'minlashga qaratilgan. Mazkur jarayonda davlat-xususiy sheriklik (DXSH) mexanizmi strategik ahamiyatga ega bo'lib, infratuzilmani modernizatsiya qilish, ijtimoiy soha xizmatlarini yaxshilash, yangi investitsiyalarni jalb etish va budjet xarajatlarini optimallashtirishning zamonaviy vositasi sifatida qaralmoqda. Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki va Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) kabi xalqaro institutlarning tahlillari ham DXSH modellarining barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda muhim o'rin tutishini tasdiqlamoqda.

So'nggi yillarda O'zbekistonda DXSH sohasini institutsional asosdan huquqiy-tashkiliy jihatdan mustahkamlashga qaratilgan qator chora-tadbirlar amalga oshirildi. Xususan, "Davlat-xususiy sheriklik



to'g'risida"gi qonun qabul qilinib, DXSH agentligi tashkil etildi, energetika, sog'liqni saqlash, ta'lim, kommunal xo'jalik tuzilmalarida yirik loyihalar hayotga tatbiq etildi. Biroq mavjud imkoniyatlarga qaramay, sohada tizimli yondashuvni kuchaytirish, loyihalarni boshqarish sifatini oshirish, xavflarni adolatli taqsimlash, loyihalarning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini baholash va xalqaro tajribalarni chuqurroq integratsiya qilish zarurati saqlanib turibdi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Davlat va xususiy sektor o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning nazariy va amaliy asoslari xorijlik olimlardan E.Yeskombe, E.Farquharson [1], D.Hall [2], R.Hemming [3], J.Delmon [4], F.Barrera-Osorio [5], H.Patrinis [6], R.Davies [7], E.Iossa, D.Martimort [8] va boshqalarning tadqiqotlarida o'rganilgan. MDH olimlaridan V.A.Kabashkin [9], V.G.Varnavskiy [10], E.A.Moxortov, A.S.Semchenkov [11], E.A.Dinin [12], V.V.Maksimov [13]larning ilmiy ishlari DXSHning dolzarb masalalariga bag'ishlangan.

O'zbekistonda xizmat ko'rsatish va servis sohalarini shakllantirish, bevosita ta'lim xizmatlari, oliy va o'rta maxsus kasb-hunar ta'lim tizimini rivojlantirish, DXSH mexanizmini takomillashtirishning ilmiy-nazariy, tashkiliy-huquqiy va metodologik asoslari respublikamiz iqtisodchi olimlaridan S.S.G'ulomov, Q.H.Abdurahmonov [14], Sh.N.Zaynitdinov [15], N.D.Rahimova, O.Q.Abdurahmonov, N.K.Zokirova [16], M.H.Saidov [17], M.Q.Pardaev [18], B.To'raev [19], N.Yusupov, F.Karabayev [20], U.Djumaniyazov [21], B.Ollanazarov [22], Q.Xalmuratov [23], G.Sadullaeva [24] va boshqalarning asarlarida keng yoritiladi. Shuningdek, N.Yusupov va F.Karabayev UNDP loyihalari doirasida DXSHning shakllanishi, B.Ollanazarov turizm sohasida DXSH asosida investitsiya mexanizmini takomillashtirish, U.Djumaniyazov esa uy-joy qurilishi sohasida DXSH asosida korporativ boshqaruvni takomillashtirish, Q.Xalmuratov esa Qoraqalpog'iston Respublikasida xizmatlar sohasida DXSHning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish masalalarini tadqiq qilgan.

Mamlakatimiz olimlarining tadqiqotlarida ham oliy ta'lim tizimini rivojlantirishning ayrim jihatlarini o'rganilgan bo'lib, akademik S.S.G'ulomov tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlarda asosan oliy ta'lim tizimining samarali boshqaruvini yo'lga qo'yish va bu tizimni xalqaro standartlarga muvofiq raqamlashtirishga alohida e'tibor qaratilgan [25]. Shuningdek, B.Yu.Xodiyev oliy ta'lim tizimini rivojlantirishda zamonaviy o'quv adabiyotlarining ahamiyatini alohida ta'kidlaydi. Ya'ni buning uchun oliy ta'lim muassasalaridagi kutubxonalarning faoliyatini o'zgaruvchan taraqqiyot muhitiga mos ravishda bosqichma-bosqich rivojlantirish zarurligini [26] qayd etadi.

Milliy xususiyatlarni inobatga olgan holda, O'zbekistonda iqtisodchi olimlardan N.Yusupov va F.Karabayev BMT Taraqqiyot dasturi doirasida DXSHning shakllanishi va rivojlanishining ayrim nazariy-uslubiy masalalarini tadqiq qilgan. Shuningdek, U.Djumaniyazov tomonidan DXSH asosida uy-joy qurilishi sohasida korporativ boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirishga yo'naltirilgan izlanishlar olib borilgan bo'lib, ammo ushbu ilmiy izlanishlarda DXSH loyihalarini jahon standartlariga mos ravishda amalga oshirishni joriy etish hamda DXSHning huquqiy va institutsional asoslarini yanada takomillashtirish va kompleks tizimlashtirish masalalari mustaqil tadqiqot obyektiga aylantirilmaganligi tanlangan maqola mavzusining dolzarbligidan dalolat beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur ilmiy maqolamizni yozish uchun olib borilgan tadqiqot jarayonida ilmiy mushohada, abstrakt-mantiqiy fikrlash, suhbat, statistik, iqtisodiy, moliyaviy, ekonometrik modellash usullaridan keng foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning asosiy drayverlaridan biri bo'lgan DXSH sohasini yanada rivojlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-apreldagi "Milliy qonunchilik bazasini kompleks tizimlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6218-son¹ hamda 2022-yil 21-dekabrda "Yangi O'zbekiston ma'muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-269-son² Farmonlari ijrosini ta'minlash, shuningdek, davlat-xususiy sheriklik sohasini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni kompleks tizimlashtirish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 30-oktyabrda "Davlat-xususiy sheriklik sohasini yanada takomillashtirish hamda kompleks tizimlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 720-son³li qarori qabul qilindi.

Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-apreldagi "Milliy qonunchilik bazasini kompleks tizimlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-6218-son Farmoni bilan tasdiqlangan 2021–2023-yillar davomida davlat organlarining faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilik hujjatlarini tizimlashtirish bo'yicha "yo'l xaritasi"da DXSH sohasini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tizimlashtirish belgilangan.

1 <https://lex.uz/docs/-5400414>

2 <https://lex.uz/docs/-6324756>

3 <https://lex.uz/uz/docs/-7180726>



Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-dekabrda "Yangi O'zbekiston ma'muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-269-son Farmoni bilan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish agentligi tugatilgan holda, uning vazifalari va funksiyalari Iqtisodiyot va moliya vazirligiga o'tkazildi. Bunga ko'ra, DXSH bo'yicha institutsional mas'uliyatga ega uchta tuzilma mavjud bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

- Iqtisodiyot va moliya vazirligining Fiskal xatarlarni baholash boshqarmasi (FXBB) davlatning DXSH loyihalari bo'yicha fiskal va shartli majburiyatlariga oid ma'lumotlarni to'playdi hamda kuzatib boradi. FXBB har yili DXSH loyihalari bo'yicha umumiy fiskal majburiyatlarni hisoblaydi va Vazirlar Mahkamasiga DXSH kafolatlari uchun budjet limitlarini taklif etadi.

- Iqtisodiyot va moliya vazirligining DXSH bo'limi DXSH shartnomalaridagi to'lovlar va kafolatlar hisobini yuritadi, fiskal majburiyatlarni hisoblashda yordam beradi, taklif etilayotgan DXSH loyihalarining xatarlari, sifati, talabi va fiskal majburiyatlarini baholaydi. Shuningdek, bo'lim FXBB uchun tavsiyalar hamda fiskal tahlillarni tayyorlaydi, qiymati 10 million AQSH dollaridan oshgan loyihalarining Vazirlar Mahkamasiga tasdiqlash uchun yuborilishini ta'minlaydi, DXSH shartnomalari doirasidagi fiskal majburiyatlarning bajarilishini kuzatib boradi.

- DXSH loyihalari markazi mahalliy va xalqaro mutaxassislar bilan hamkorlik qiladi, o'quv mashg'ulotlarini tashkil etadi hamda DXSH tashabbuslari, namunaviy shartnomalar, modellar va samaradorlik mezonlarini ishlab chiqadi. Shuningdek, markaz DXSH loyihalarida korrupsiya va manfaatlar to'qnashuvining oldini olish choralari ishlab chiqadi [27].

Xorijiy tajribalar asosida Osiyo taraqqiyot banki, Jahon banki va boshqa xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikda DXSH loyihalarini jahon standartlariga mos ravishda amalga oshirishni joriy etish hamda DXSH sohasining huquqiy va institutsional asoslarini takomillashtirishga qaratilgan takliflar ishlab chiqildi.

Bugungi kunga kelib, Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan "Barqaror infratuzilma tashkiloti (The Sustainable Infrastructure Fund)" bilan hamkorlikda "Source" xalqaro platformasida jahon standartlariga mos ravishda davlat-xususiy sheriklik loyihalari jozibadorligini oshirish, yirik loyihalarni moliyalashtirish va amalga oshirish imkoniyatlarini kengaytirish choralari ko'rilmoqda.

DXSH loyihalarini amalga oshirish uchun O'zbekiston Respublikasi budjeti tizimining budjet mablag'lari, subsidiyalar, budjet ssudalari va kredit liniyalarini ajratish tartibini belgilovchi Nizom tasdiqlandi.

Ushbu Nizomlar asosida kelgusida DXSH sohasida bir qator muhim ijobiy natijalarga erishish mumkin. Birinchidan, loyihalarni boshqarishda to'liq tizimlilik ta'minlanadi. Loyihalarining barcha bosqichlari — tashabbusdan to amalga oshirish va monitoringgacha — yagona standartlar asosida amalga oshirilishi orqali davlat organlari o'rtasidagi muvofiqlashtirish muammolari bartaraf etiladi, byurokratik kechikishlar qisqaradi va loyihalar mazmunan ham, moliyaviy jihatdan ham puxta tayyorlanadi. Bu esa DXSH tizimining institutsional barqarorligini oshiradi.

Ikkinchidan, DXSH loyihalarining milliy reestri yuritilishi shaffoflikni keskin oshiradi. Reestr orqali har bir loyihaning statusi, sarflangan mablag'lar, amalga oshirish bosqichlari va natijalari jamoatchilik, investorlar va tegishli idoralar uchun ochiq bo'ladi. Shaffoflikning oshishi korrupsiya holatlarini kamaytiradi, investorlar ishonchini kuchaytiradi va mamlakatning investitsion jozibadorligini oshiradi.

Uchinchidan, xususiy sherikni tanlash tartibining aniq belgilab qo'yilgani raqobat muhitini kuchaytiradi va loyihalar sifatini oshiradi. Mezonlarning ochiq belgilanishi tender jarayonlarini adolatli va shaffof qiladi, eng malakali va texnologik imkoniyatlarga ega investorlarni jalb qilishga xizmat qiladi.

To'rtinchidan, DXSH loyihalarini moliyalashtirish tartibining belgilanishi moliyaviy barqarorlikni ta'minlaydi. Budjet mablag'lari, subsidiyalar, ssudalar va kredit liniyalarining aniq tartibda taqsimlanishi davlat xarajatlarining rejali va maqsadli sarflanishiga yordam beradi, xususiy sektor uchun esa risklar kamaygan sharoit yaratadi. Bu ijtimoiy ahamiyatga ega loyihalarni amalga oshirish imkonini yanada kengaytiradi.

Beshinchidan, monitoring va hisobot berish tartibining joriy etilishi loyihalarining natijadorligini oshiradi. Loyihalardagi kamchiliklar o'z vaqtida aniqlanadi, KPI asosida baholash mexanizmi shakllanadi va rejadani chetlashish holatlari tezkor bartaraf etiladi. Bu joriy loyihalarining sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Ushbu Nizomlar xalqaro tajribalarga mos milliy DXSH modelini shakllantirishga ham xizmat qiladi. Ular OECD, Jahon banki, OTB kabi institutlarning tavsiyalariga uyg'un bo'lib, xalqaro investorlar bilan hamkorlikni osonlashtiradi, zamonaviy baholash instrumentlari — CBA, VfM, Risk Allocationni joriy etish imkonini yaratadi.

Uzoq muddatda esa ushbu tartiblar infratuzilma modernizatsiyasini tezlashtiradi, ijtimoiy soha xizmatlarini yaxshilaydi, budjet xarajatlarini optimallashtiradi, xususiy investitsiyalarni jalb qilish hajmini oshiradi, yangi ish o'rinlari yaratadi va innovatsion texnologiyalar kirib kelishini ta'minlaydi. Shu tariqa, DXSHning milliy iqtisodiyotdagi rolini keskin kuchaytirishga hamda barqaror rivojlanishga erishishda muhim omil sifatida xizmat qiladi.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli iqtisodiy islohotlar sharoitida davlat-xususiy sheriklik (DXSH) mexanizmi infratuzilmani modernizatsiya qilish, ijtimoiy soha xizmatlarini yaxshilash va xususiy sektor ishtirokini kengaytirishda muhim amaliy ahamiyat kasb etmoqda. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, mamlakatda DXSHning huquqiy-institutsional bazasini shakllantirish, yirik loyihalarni joriy etish va investorlar uchun qulay biznes muhitini yaratish borasida salmoqli natijalar kuzatilmoqda. Energetika, sog'liqni saqlash, ta'lim, kommunal xo'jalik va transport infratuzilmasi yo'nalishlarida amalga oshirilayotgan sheriklik loyihalari o'z iqtisodiy va ijtimoiy samaradorligini namoyon qilmoqda.

Kelgusi bosqichda DXSH tizimini yanada takomillashtirish va uning samaradorligini oshirish uchun bir qator ustuvor yo'nalishlarda metodik yondashuvlarni kuchaytirish maqsadga muvofiqdir. Xususan, loyihalarni baholash va monitoring qilishning yagona mezonlarini ishlab chiqish tizimlashtirish jarayonini yangi bosqichga olib chiqishi mumkin. Xavflarni taqsimlash bo'yicha ilg'or amaliyotlarni joriy etish sheriklik mexanizmlarining barqarorligini ta'minlaydi. Institutsional muvofiqlashtirishning yanada takomillashuvi hamkorlikning izchilligini oshiradi, malakali mutaxassislar tayyorlash jarayonining rivojlanishi esa DXSH loyihalarining professional darajada boshqarilishini ta'minlaydi. Ochiq ma'lumotlar tizimini yanada kengaytirish investorlar va jamoatchilik uchun shaffoflikni kuchaytirib, sohaning raqamli boshqaruv salohiyatini oshirish imkonini beradi.

Yuqoridagi xulosalar asosida DXSH sohasini yanada takomillashtirish va uni kompleks tizimlashtirish maqsadida quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

1. Institutsional bazani mustahkamlash. DXSHni tartibga soluvchi huquqiy normalarni xalqaro standartlarga muvofiq yangilash, DXSHga mas'ul tuzilmalar vakolatlarini kengaytirish va ekspertiza, monitoring hamda xavflarni baholash bo'yicha markazlashgan funksiyalarni kuchaytirish zarur.

2. Loyihalarni tanlash va baholash mexanizmlarini takomillashtirish. Barcha tarmoqlar uchun yagona metodologiya asosida Cost-Benefit Analysis (CBA), Value for Money (VfM) va Risk Assessment mezonlarini joriy etish, raqamli platformalar asosida loyihalar samaradorligini baholashni yo'lga qo'yish maqsadga muvofiq.

3. Xavflarni adolatli va shaffof taqsimlash. Xalqaro amaliyot asosida davlat va xususiy sektor o'rtasida xavflarni optimal taqsimlovchi modellarni ishlab chiqish va joriy etish DXSH loyihalarining barqarorligini ta'minlaydi.

4. Xususiy sektor ishtirokini rag'batlantirish. Soliq imtiyozlari, kafolatlar, konsessiya shartlari va subsidiya mexanizmlarini takomillashtirish, shuningdek mahalliy va xorijiy investorlar uchun qulay investitsiya muhitini yaratish muhim ahamiyatga ega.

5. Kadrlar salohiyatini oshirish va mutaxassislar tayyorlash. DXSH sohasida o'quv dasturlari, malaka oshirish kurslari va xalqaro sertifikatlashtirish tizimlarini joriy etish, xalqaro institutlar bilan hamkorlikda kadrlar tayyorlashni kengaytirish zarur.

6. Ijtimoiy DXSH modellarini rivojlantirish. Ta'lim, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohaslarida aholi farovonligiga qaratilgan sheriklik loyihalarini ko'paytirish, innovatsion xizmat ko'rsatish mexanizmlarini joriy etish ijtimoiy samaradorlikni oshiradi.

7. Ochiq ma'lumotlar platformasini shakllantirish. Barcha amalga oshirilayotgan va rejalashtirilayotgan DXSH loyihalari bo'yicha ma'lumotlarni jamlovchi milliy elektron platforma yaratish, xarajatlar, natijalar va samaradorlikni jamoatchilikka ochiqlash shaffoflik va jamoatchilik nazoratini kuchaytiradi.

Umuman olganda, Yangi O'zbekistonda DXSHning tizimli rivojlanishi iqtisodiy barqarorlik, infratuzilma sifatining yaxshilanishi, xususiy sektor faolligining oshishi va ijtimoiy sohalarida xizmatlar sifati ortishini ta'minlaydi. Taqdim etilgan takliflarni amalga oshirish orqali mamlakatda DXSHning institutsional va amaliy mexanizmlarini tubdan takomillashtirish, milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirish hamda xalqaro amaliyot bilan uyg'unlashgan barqaror rivojlanishga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Yescombe E.R., Farquharson E. Public-Private Partnerships for Infrastructure: Principals of Policy and Finance. 2nd Edition. Butterworth-Heinemann, 2018. ISBN: 978-0-08-100766-2.
2. David Hall., Why public-private partnerships don't work. The many advantages of the public alternative, Psiru, 2015.
3. Richard Hemming. Public-Private partnership. e IMF Institute and the Joint Africa Institute Tunis, Tunisia, February 28 – March 1, 2006.
4. Jeffrey Delmon. Public-Private Partnership Projects in Infrastructure. Cambridge University Press 978-0-521-15228-0.
5. Felipe Barrera-Orsorio. The Impact of Public-Private Partnerships on Private School Performance: Evidence from a Randomized Controlled Trial in Uganda. Economic Development and Cultural Change. 2018. DOI: 10.1086/701229.
6. Patrinos, Harry Anthony. The Role and Impact of Public-Private Partnerships in Education. © 2009 The International Bank for Reconstruction and Development / The World Bank.
7. Peter ED Love, Peter R Davis, Robert Chevis, David J Edwards. Risk/reward compensation model for civil engineering infrastructure alliance projects. Journal of construction engineering and management. 2011/2.



8. Iossa, E., & Martimort, D. (2015). The Simple Microeconomics of Public-Private Partnerships. *Journal of Public Economic Theory*, 17(1), 4–48. doi: 10.1111/jpet.12114.
9. Кабашкин В.А. Государственно-частное партнерство в регионах Российской Федерации: учебное пособие / Кабашкин В. А. М.: Дело, 2010.
10. В.Варнавский. Государственно-частное партнерство: некоторые вопросы теории и практики. *Мировая экономика и международные отношения*, 2011, № 9.
11. Дынин Е.А. Риски бизнеса в частно-государственном партнерстве / Дынин Е.А. // *Общество и экономика*. – 2007.
12. В.В.Максимова. Государственно-частное партнерство в транспортной инфраструктуре. Москва.2010. ISBN 978-5-9614-1143-0.
13. Гулямова С.С., Абдурахмонова К.Х. Образование и человеческое развитие: Мировая практика и опыт Узбекистана. Монография. – Т.: ТГЭУ, 2004. – 170 с.
14. Рахимова Д.Н., Абдурахмонов О.К., Зокирова Н.К. Образовательный маркетинг и рынок труда. – М.: Сов. писатель, 2005. – 144 с.
15. Саидов М.Х., Перегудов Л.В. Менеджмент и экономика высшего образования. – Т.: Молия, 2001. – 252 с.
16. М.Қ.Пардаев ва Ҳ.Н.Мусаев умумий таҳрири остида. Хизмат кўрсатиш, сервис ва туризм соҳаларини ривожлантириш: муаммолар ва уларнинг ечимлари. Монография. – Т.: Iqtisod-moliya, 2008. – 259 б. 5. Тураев Б.Х. Организационно-экономические механизмы регионального туризма. – Т.: Фан, 2009.
17. Садуллаева Г.С. Ўзбекистонда таълим хизматлари бозорини ривожлантириш истиқболлари. // “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий-электрон журнали. 6-сон, ноябрь-декабрь, 2018.
18. Джуманиязов У.И. Давлат-хусусий шерикчилиги асосида уй-жой қурилиши соҳасида корпоратив бошқарув механизмларини такомиллаштириш. PhD илмий даражаси учун дисс. авторферати. – Т.: ТДИУ, 2017. – 58 б.
19. Олланазаров Б. Давлат-хусусий шерикчилиги механизми асосида туризм соҳасида инвестицион фаолликни ошириш йўналишлари. // Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси. – Хива, 2019. №1. 36-41-б.
20. Халмуратов Қ. Қорақалпоғистон Республикасида хизматлар соҳасида ДХШнинг ташкилий-иқтисодий механизмини такомиллаштириш. PhD илмий даражаси учун дисс. авторферати. – Нукус: ҚорДУ, 2021. – 63 б.
21. Юсупов Н., Карабаев Ф. Теория и практика государственно-частного партнерства. Учебный модуль. / Под. редак. А.Э.Шайхова. – Т., 2013. www.undp.uz
22. Джуманиязов У.И. Давлат-хусусий шерикчилиги асосида уй-жой қурилиши соҳасида корпоратив бошқарув механизмларини такомиллаштириш. И.ф.ф.д. ... дис. автореф. – Т.: ТДИУ, 2018. – 27 б.
23. Ирина И.А., Фанина Е.И. Современные тенденции развития высшего образования. // ISSN: 1991-5497. Мир науки, культуры, образования (электронный журнал). № 5 (96). 2022.
24. Гуломов С.С. Дистанционное экономическое образование. – Т.: Шарқ, 2004. – 203 с.
25. Ходиев Б.Ю. Олий иқтисодий таълим тизими учун замонавий ўқув адабиётлари яратиш: янги стандарт талаблари, тузилиши, мазмуни. – Т.: ТДИУ, 2005. – 168 б.
26. Dwight, Lawrence. 2025. “Republic of Uzbekistan and Public-Private Partnerships: Country Lessons.” IMF Selected Issues Paper (SIP/2025/087), International Monetary Fund. Washington, DC.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
